

ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" DOSTONIDA ISHQ TALQINLARI

Umaraliyeva Farangiz Farrux qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 2-bosqich 22.94-guruh talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada shoir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni tarkibidagi dostonlardagi ishq talqinlari, ishqqa muhtalo bo'lgan insondagi ruhiy jarayonlar, ishq tufayli inson avval olov kabi yonishi hamda keyingi bosqich: ishq sababli ruhning poklanishi, shoirning ishqqa bo'lgan qarashlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: "shams ul-millat", ishq, doston, muhabbat, qissa, hamd, Yaratgan Alloh, "Layli va Majnun", oshiq, Sh. Sirojiddinov, tasavvuf, tafrid (yolg'izlanish), Haq, munojot, "munojotnoma", ishq dashti, peyzaj, borliq, osmon jismlari, sukut, oshiq-ma'shuq, ruh, tavhid (birlik), poklik, "Farhod va Shirin", "komil inson", ilm, sevgi, yor, forscha, B. Erاليyev "Majoziy ishq bulog'i", majoziy ishq, haqiqiy ishq, hijron, azob, iztirob, "Sab' ai sayyor", 7 qasr, qorq qasr; qora libos, oq qars; oq libos, visol, insoniy muhabbat, ilohiy muhabbat, kimyo, kimyogarlari, mis, oltin, tuproq, ishq olovi, nafs.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy turkiy xalqlarning "shams ul-millat" i ya'ni "millat quyoshi" kabi yuksak nom bilan ham ataladi. Darhaqiqat, Navoiy nafaqat turkiy xalqlarning, balki butun dunyo adabiyotiga juda katta hissa qo'shgan, jahon adabiyoti xazinasini boyitgan.

O'sha davrda bir fikr ilgari surilganki, u ko'pchilikning miyyasiga o'rnashib qolgan edi, ya'ni faqat forsiy tildagina go'zal ijod namunalarini yaratish mumkin, turkiy tilda go'zal ijod namunalarini yaratib bo'lmaydi degan fikr ilgari surilgan edi. Lekin hazrat Navoiy ushbu gapga qo'shilmadi, turkiy tilda ham go'zal ijod namunalarini yaratish mumkin deydi va ko'p harakat qiladi. Ushbu harakatlar besamar qolmaydi. Turkiy tilda ham juda salmoqli hamda sermahsul ijod qiladi.

Alisher Navoiy ijodini o'rganish davomida, bir narsani anglab yetdimki, Navoiyning har bir ijod namunasida ishq bor. U xoh g'azal bo'lsin, xoh fard, xoh tuyuq, xoh tazkira, xoh doston bo'lsin, barchasidan ishq o'rin egallagan. Lekin ushbu ishqni faqat insonning insonga bo'lgan ishq deb tushunmaslik kerak. Ushbu ishqning barchasi insonga bo'lgan muhabbat emas, balki Yaratganga, Allohga bo'lgan ishqdir, Allohga bo'lgan muhabbatdir.

Navoiyning ishq haqidagi dostonlaridan biri "Xamsa" dostonining tarkibiga kiruvchi "Layli va Majnun" dostonidir. Ushbu doston "eng go'zal ishqiy qissa" nomi bilan ham ataladi. Dostonning hamd qismida Navoiy g'oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajalliysi tasvirini ushbu yozilayotgan doston bilan bog'liq holda bayon etadi. Ya'ni Navoiy quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Yaratuvchining har yerdagi tajalliysi jahonda Layli bo'lib ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iborat", ushbu fikrlar dostonida quyidagi misralar bilan bayon etiladi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,

Ul mahzar o'lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Navoiy ijodidagi ishqni faqat insonga bo'lgan muhabbat deb emas, balki Yaratganga muhabbat deb tushunish kerak degan fikrlarimizga isbot qilib yuqoridagi baytni misol keltirishimiz mumkin. Majnun Laylining ishqida shu darajaga yetadiki, u qabiladoshlarini ham, yaqinlarini ham, umuman, jamiyatni ham unutish darajasiga boradi, Navoiy ushbu holatni haqiqiy oshiq uchun xos xususiyatdir deydi. Sh. Sirojiddinovning Navoiy haqida yozilgan kitobida bu holat haqida quyidagilar bayon etiladi: "Tasavvufda bu holat "tafrid" (yolg'izlanish) deb ataladi. Oshiq ushbu holatda shunday martabani egallaydiki, yaqinlaridan, umuman, insonlardan bezor bo'ladi; yakkalikni, yolg'izlikni qo'msaydi. Yolg'izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi".

"Layli va Majnun" dostonidagi meni ta'sirlantirgan joylaridan biri shuki, Majnunning ahvoli tobora yomonlashganini ko'rgan qarindoshlari, yaqinlari, atrofidagi insonlar, Laylini untishini, Laylidan voz kechishini aytishadi. Lekin Majnun aslo Laylidan voz kechmaydi, aksincha, Layli ishqini ko'ngliga mustahkamroq jo etishini so'rab, Allohga munojot qiladi. Bu lavha dostonning eng ta'sirchan o'rinlaridan biri bo'lib, 43 baytadan tashkil topgan. Buni o'ziga xos "munojotnoma" desak ham bo'ladi, mazkur munojotnomada 24 o'rinda "ishq" so'zidan foydalanilgan. Majnun undan ishqini va Laylini unutishini so'ragan kishilarga achinish hissini tuyadi va hatto Allohdan ularni afv etishini so'raydi.

Ushbu dostonning yana bir o'rnida Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadi, ushbu o'rindagi peyzaj ham juda mahorat bilan tasvirlangan: Butun borliq, osmon jismlari va yerdagi barcha tirik mavjudotlar sukutga cho'madi, oshiq-ma'shuqlarga xayrixohlik qiladi deyiladi dostonida. Ayni shu damda ular ruhan birlashadilar, ikkilik o'rnini birlik - tavhid egallaydi. "Tavhid" so'zi arabchadan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "bir, birlik" deganidir. Navoiy ushbu holatga shunday fikr bildiradi: " Ularning vasli poklikdan ayri bo'lmagan. Ishq ahli ulardek pok bo'lar ekan, ularga abadiy vasl muyassar bo'lsa, ne ajab, zero, nafs maqsadida oshiq bo'lganlar uchun "oshiqlik haromdir".

Alisher Navoiyning "Xamsa" tarkibidagi yana bir ishqiy dostoni "Farhod va Shirin" dostonidir. Bilamizki, ushbu dostonida Navoiy Farhod obrazini "komil inson" darajasiga ko'targan. Menimcha, Farhodni komil inson darajasiga ko'tarish sabablaridan biri ilm bo'lsa, biri ishqdir. Chunki doston aytiladiki, Farhod 10 yoshga to'lganda dunyoda egallamagan ilmi qolmagan edi, deyiladi. Komil inson bo'lishiga sabablardan biri ushbu ilmdir.

Yuqorida Farhodni komil inson bo'lishiga sabablaridan biri ishqdir, degan g'oyani ilgari surdik. Chunki dostonida aytiladiki, Farhod tug'ilganidayoq ishq bilan tug'iladi, tug'ma ish bo'ladi unda. Voqealar rivojida u Shiringa oshiq bo'ladi, Shirin tufayli ko'plab sinovlarni yengib o'tadi, ang asosiysi u o'z sevgisiga sodiq qoladi, ya'ni u Shirindan boshqa qizga ko'ngil bermaydi. Bunga isbot sifatida ushbu dostonida Navoiyning bir fikri bor: "Bir qalbgga ikki muhabbat jo bo'lmas". Naqadar go'zal so'zlar....

Navoiydan avval ham ushbu mavzuda forscha dostonlar ham yozilgan, lekin ularning bosh qahramonlari komil inson darajasiga ko'tarilmagan. Mening fikrimcha, buning sababi ham ishq bilan bog'liq, chunki u dostonidagi bosh qahramon bir insonga sodiq qolmagan, lekin Farhod Shiringa sodiq qolgan, shu sababdan Navoiy Farhodni komil inson darajasiga olib chiqqan deb o'ylayman.

B. Eraliyev "Majoziy ishq bulog'i" nomli maqolasida shunday deydi: Farhod va Shirin dostonida majoziy ishq egalari ham, haqiqiy ishq egalari ham ozuqa oladilar".

"Xamsa" dostoni tarkibidagi ishq bilan bog'liq dostonlardan yana biri bu: "Sab'ai sayyor" dostonidir. Ushbu dostonida ko'plab masalalar tilga olingan bo'lib, ular orasida ishq masalasi ham bordir. Dastavval, Diloromga osonlikcha erishgan Bahrom haqiqiy oshiq bo'lmaydi. Lekin Diloromni yo'qotgach, hijron azobidan o'zini butunlay yo'qotadi, bu holat dostonida quyidagicha beriladi:

Joni ikki balo arosinda,
Mo'r ikki ajdarho arosinda.
Ne o'luk erdi, ne tirik soni,
Bo'lmas erdi tirik demak oni.

Shohning ahvoli og'irlasha boradi. Navoiy u o'rinda Bahromda endi chin ma'noda oshiqlik sifatleri paydo bo'layotganligini aytadi. Navoiy ushbu holatda shunday fikrni ilgari suradi: "Zero, ruhiy iltiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo'ladi".

Bahromning ruhi ishq tufayli poklanadi, bunga isbot sifatida 7 qasr hikoyasini keltirishimiz mumkin. Bahrom birinchi hikoyani o'z ruhiy holati kabi qora qasrda va qora libosda tinglagan edi, chunki u o'z Diloromidan ayrilgan, hijrondek bir zulmatda edi, lekin vaqt o'tib, qasrlar to'q rangdan, och rangga qarab ketadi, ya'ni vaqt o'tgan sari Bahromning ruhiyati ham poklanib, ko'ngliga yorug'lik kiradi. Yettinchi hikoyada u oq qasrda va oq libosda bo'ladi. Bu hikoya unga visol umididan darak beradi, qalbiga nur olib kiradi.

Xulosa. Menimcha, insonning insonga bo'lgan muhabbati uni Allohga yaqinlashtiradi. Qanday qilib?...

Bu savolga shunday javob berishimiz mumkin, agar kimdir birovni sevsa, u uchun Allohga duo qiladi, sevgan insonining borligi uchun, sevgan insonini yaratgani uchun Allohga shukur qiladi, rahmat aytadi, uning sog'ligini so'rab duo qiladi, O'z panohida asrashini so'raydi, uning qalbiga o'zini joylashini va u bilan birga bo'lishini so'raydi. Shu kabi duolar qilib, Yaratgan Alloh bilan yanada ko'proq muloqotda bo'ladi, ko'proq gaplashadi va shu muloqot tufayli Allohga yanada yaqinlashadi. Mening fikrimcha, insoniy muhabbat bilan ilohiy muhabbatni zid qo'ymaslik kerak, chunki ilohiy muhabbatga boradigan yo'l - insoniy muhabbatdir. Navoiy ham shu mazmundagi gaplarni aytadi, ya'ni Navoiyning fikricha, "Pok insoniy muhabbat va ilohiy ishqni bir-biriga zid qo'yish to'g'ri emas, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisidan o'sib chiqadigan hodisa".

Navoiy ishqni kimyoga o'xshatadi, ya'ni qadimda kimyogarlar mis va boshqa ma'danlarni yuqori harorat ta'sirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar, Navoiy aynan shu hodisaga ishora qilib, odam aslida tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining

"kimyo" ligi uni oltinga aylantiradi, ya'ni ishq inson vujudini turli xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir. Poklanish, ya'ni "kimyo" lanish ishqni majoziy bo'lib, undan "oltin" ga aylanib chiqqan oshiq endi o'zligidan qutuladi va qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor (Haq) ni ko'radi. Shu sababli ham haqiqiy ishq nafsdan holi bo'ladi.

Xulasa qilib aytadigan fikrim shuki, Navoiy ijodi ishqdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiyshunoslik Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova
2. B. Eraliyev "Majoziy ishq bulog'i"
3. Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati
4. "Xamsa" sarlavhalari badiiyati Abdulhamid Qurbonov
5. Navoiyga qaytish Ibrohim Haqqul